O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo’minov ko’chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail: info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2023 - yil 29 - noyabr 471-2-0-Q/23 Buxoro viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 24-noyabrdagi 620-sonli “Yong‘in xavfsizligi a’lochisi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 24-noyabrdagi 620-sonli “Yong‘in xavfsizligi a’lochisi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 24-noyabrdagi 620-sonli “Yong‘in xavfsizligi a’lochisi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomini tasdiqlash haqida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Vazirlar Mahkamasining “Yong‘inlar profilaktikasi samaradorligini oshirish va yong‘in xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-avgustdagi 332-son qarorining 3-bandida:

2024-yildan boshlab har yili “Yong‘indan ogohlik” umummilliy kampaniyasi doirasida tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida “Yong‘in xavfsizligi a’lochisi” tanlovi (keyingi o‘rinlarda - tanlov) o‘tkazib borilishi;

tanlovda ishtirok etish uchun arizalar Favqulodda vaziyatlar vazirligining maxsus elektron axborot tizimi orqali qabul qilinishi;

tanlov g‘olibi talabgorlarning yong‘in xavfsizligi talablariga javob berishini o‘rganish orqali aniqlanishi;

tanlov g‘olibiga 100 mln so‘m miqdorida bir martalik pul mukofoti berilishi hamda uning faoliyati ikki yil davomida davlat yong‘in nazorati organlari tomonidan tekshirilmasligi;

tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar Favqulodda vaziyatlar vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari hamda tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

“Yong‘in xavfsizligi a’lochisi” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tumanlar va shaharlar hokimliklari favqulodda vaziyatlar viloyat boshqarmasi bilan birgalikda Nizom asosida tuman (shahar) darajasida nomzodlarning tanlovda ishtirok etishini ta’minlasin hamda tanlov g‘oliblarini taqdirlashni tashkil etsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari J.Arashov hamda viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i A.Abduxalikov zimmasiga yuklansin.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**